

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN VILOYATI XALQ TA'LIMI
BOSHQARMASI
YANGIQO'RG'ON TUMANI XTMFMTTE
BO'LIMIGA
QARASHLI 32-UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABINING
ONA TILI VA ADABIYOT FANI O'QITUVCHISI
AHMEDOVA ZUMRADXONNING
ONA TILI FANIDAN
BIR SOATLIK**

Dars

ishlanmasi

Ushbu dars ishlanma Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 32-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyoti o'qituvchisi Ahmedova Zumradxon tomonidan tayyorlangan bo'lib, barcha ona tili adabiyoti o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Muallif: Ahmedova Zumradxon – 32-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

Muharrir: S.Qozoqov – Yangiqo'rg'on tumani XTMTFMTTE bo'limi ona tili va adabiyoti fani metodisti

Taqrizchilar: M.Tusmatova – 32-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Ushbu dars ishlanmasi Yangiqo'rg'on XTMTFMT va TE bo'limi kengashining 2014-yil “_____” “_____” dagi N _____ - sonli qarori bilan foydalanishga tavsiya etildi.

Darsning mavzusi;

Qaratqich aniqlovchi

Darsning talimiy maqsadi;

O'quvchilarga qaratqichli aniqlovchi yuzasidan ma'lumot berish, sifatlovchi aniqlovchi bilan qaratqichli aniqlovchini farqlashni o'rgatish; mustahkamlash tushuncha hosil qilish yozma savodxonligini oshirish.

Tarbiyaviy maqsad;

Milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini o'stirish kasbga mehr uy-g'otish komil insonni tarbiyalash, huquqiy tarbiyani shakllan tirish.

Rivojlantiruvchi maqsad;

O'quvchilarning ma'naviy va siyosiy ongini o'stirish, bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Darsning usuli;

Aqliy hujum „Charxpalak“, “O’yla , izla, top” o'yini

Darsning jihozi;

Mavzuga oid ko'rgazma, shaxs narsa joy nomlari aks ettirilgan rasmlar, slaydlar, magnitafon tasmasi.

Darsning shiori;

Beshikdan to qabrgacha ilm izla

Darsning rejasi;

1. Tashkiliy qism; 3- daqiqa

2. Ona tilimiz madhi; 5- daqiqa

3. Aqliy hujum; 5- daqiqa

4. Yangi mavzu bayoni; 25 - daqiqa

Bunda quyidagi shartlar bajariladi;

1- shart; „ Charxpalak " o'yini

2- shart; Darslik-yaqin yordamchi

3- shart; Xotira mashqi

4-shart “O’yla, izla, top”

Mustahkamlash; 4- daqiqa

Dars yakuni; 3- daqiqa

Dars mavzusining rejasi;

1. Qaratqichli aniqlovchi haqida ma’lumot

2. Aniqlovchi va aniqlanmish munosabati

O'qituvchi;

Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar

O'quvchilar;

Vaalaykum assalom, ustoz

O'qituvchi;

Bugungi darsimiz

O'quvchilar;

Ona tilim - jonu dilim.

O'qituvchi;

Siz tilni asrangiz har nedan ortiq
Yagona zaminni asragansimon,
Bobolardan qolgan bu noyob tortiq
Toki avlodlarga yetolsin omon.

O'quvchilar uch guruhga bo'linadilar.

1- guruh;

„Yaxshilik “

2- guruh;

„Do'stlik “

3- guruh;

„Ezgulik “

1- guruh;

Ona tili ! Qadimiy va navqiron til. Nihoyatda chuqur mazmun va
jo'shqin his-tuyg'ularini o'zida mujassam etgan hazrat Navoiy tili !

2- guruh;

Ozodlikka, erkga intiluvchi xalqning dard alaming sodda va
ravon ifodasi bo'lgan shoh Bobur tili !

3- guruh;

Sharqning nafis, bag'oyat go'zal, sharmu - hayoli madaniyatining
ruhi singdirilgan Uvaysiy va Nodirabegim tillari !

O'qituvchi;

**Rahmat, o'quvchilar. Biz ona tilimizni mehribon onamizday ona
Vatanimizday sevib, ardoqlaylik. Chunki ona tili millatimiz onasi
va oynasidir.**

3- shart; Aqliy hujum

Hozir har bir guruhga tezkor savollar beramiz.

Savollar:

1- guruhga;

1. Ikki so'z qo'shni, inoq

Oralarida tayoq. [juft so'zlar.]

2. Tilingda bo'lsa bo'ling,

.....

3. Qator kelsa ikki so'z.

Bir xil ko'radi har ko'z.

Shakli biru manosi

Boshqa - boshqa qaysi so'z?

4. Til to'g'risidagi qonunimiz necha moddadan iborat.

2- guruhga;

1. Yaxshilar ko'paysin

Yomonlar qolmasin

Yomon bo'lmasin

Yaxshi ishlarimiz

„ Yaxshi " „ Yomon " so'zlari

Gapning qaysi bo'lagi? [Aniqlovchi]

2. Tilga ixtiyorsiz

.....

3. Hol deb nimaga aytiladi?

4. Ona tilimizga Davlat tili maqomi berilgan kun [1989.21.10]

3- guruhga;

1. Bir so'z yozilsa takror

Orasida ne darkor?

Yaxshi o'ylab topinglar

Uch-to'rt misol aytinglar. [Chiziqcha]

2. Ot-kesim ishtirok etgan gap tuzing.

3. Yaxshi so'z jon ozig'i

.....

O'tilgan mavzuga oid uch guruhga quyidagi savollar beriladi, olgan bilimlari takrorlanib yodga olinadi:

1. Aniqlovchi deb nimaga aytiladi?
2. Aniqlovchi necha turga bo'linadi?
3. Sifatli aniqlovchiga misol ayting?

1-guruh

Hokim bo'lakdan anglashilgan narsaning qandayligi kimga yoki nimaga qarashli ekanligi ni bildirib, qanday ? qanaqa ? qaysi ? qancha?

kimning ? nimaning ? kabi so'roqlarga javob bo'luvchi gap bo'lagiga aniqlovchi deyiladi.

2-guruh

Aniqlovchi ma'nosiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Sifatli aniqlovchi
2. Qaratqichli aniqlovchi

3-guruh

Mehribon ona, obod yurt, sog'lom bola, mazzali non, so'lim qishloq va qiziqarli kitob.



Shundan so'ng sinf taxtasiga quyidagi so'zlar yoziladi:

Kimning ?
Qayerning?

Nimaning ?

..... so'zlari

..... hidi

.....noni

..... rasmi

..... sehri

.....tabiati

Har bir guruhdan o'quvchilar chiqib, so'zlarning yoniga so'z qo'yib, so'z birikmalarini hosil qiladilar. Shundan so'ng qaratqich aniqlovchi haqida ma'lumot beriladi.

Hokim bo'lakdan anglashilgan narsaning uchta shaxsdan biriga qarashli ekanligi bildirib, kimning ? nimaning ? qayerning ? so'roqlariga javob bo'lgan aniqlovchi qaratqich aniqlovchi deyiladi. Qaratqich aniqlovchi doimo aniqlanmishga bog'lanadi. Aniqlanmish doimo egalik qo'shimchasini oladi.



Masa

lan vatanimizning ramzlari, kitobning nomi , buvimning ertagi va qishlog'imizning tabiati.

1-shart “Charxpalak” o’yini o’tkaziladi

Har bir guruhga alohida alohida topshiriqlar beriladi;

“Yaxshilik” guruhiga:

Kimning so’rog’iga javob bo’luvchi so’z birikmalarini yozish.

“Do’stlik” guruhiga:

Nimaning so’rog’iga javob bo’luvchi so’z birikmalarini yozish.

“Ezgulik” guruhiga:

Qayerning ? so’rog’iga javob bo’luvchi so’z birikmalarini yozish.

Bunda o’quvchilar o’qituvchi tomonidan berilgan varaqlarga yozib chiqishadi. Tez chiroyli bajargan guruhlar rag’batlantiriladi.

2-shart “Darslik eng yaqin yordamchi”

O’quvchilar darslik asosida ishlashadi. 1-topshiriqda berilgan to’rtlikdagi nuqtalar o’rniga kerakli kelishik qo’shimchalarini qo’yadilar:

Do’stlikning mehri, do’stlikning mehri, do’stlikning gashti

160-mashq yozma ravishda bajariladi.



Sinf taxtasiga o'quvchilar chiqib, mashqni yozadilar.

- 1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - baxtimiz qomusi.**
- 2. Vatanimizning poytaxt – Toshkent.**
- 3. Mamlakatimizda qonunlarning ustuvorligi so'zsiz tan olinadi.**
- 4. Siz o'zingizning huquqlaringizni bilasizmi ?**

Ushbu mashqda yozma savodxonlik asosida chiroyli yozgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

161-mashq iqtidorli o'quvchilarga mo'njallangan. Ular bu topshiriqni bajarishayotganda qolgan o'quvchilar bilan tarqatma materiallar bilan ishlanadi.

3-shart. “Xotira”

Bunda o'quvchilarga audio vositasi ya'ni magnitafon tasmasida qo'shiq eshittiriladi. Bunda o'quvchilar qo'shiqdan qaratqich aniqlovchi ishtirok etgan so'zni topishadi. Bu shartda eng ko'p so'z topgan guruh rag'batlantiriladi.

4-shart. “O'yla, izla top”

Bunda har bir guruh qaratqich aniqlovchi ishtirok etgan sh'er, maqol, topishmoq aytishadi.

“Yaxshilik” guruhi.

Yassavi baytida tumorim tilim,
Navoiy nazmida sen orim tilim,
Kumushning vaslida betakror tilim
Qodiriydan qolgan yodgorim tilim.

“Yaxshining so’zi qaymoq, yomonning so’zi to’qmoq” .

„ Do'stlik " guruhi;

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posponi
Halqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

„ Ezgulik " guruhi;

„ Mehnat - mehnatning tagi rohat "
Ilm-u hunar bilan dunyoni olgan,
Buyuk allomalar – avlodlarimiz.
Go'zal san'atiga jahon lol qolgan,
Ijodkor zotlarning zuryodimiz.

Mustahkamlash

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga quyidagi grammatik topishmoq va savollar beriladi.

Jonzod narsalarni

Aniqlash kasbu kori

Qanday ? kimning ? nimaning ?

Javob talab so'rog'i

(Aniqlovchi)

O'zi to'lqinli chiziq

Xizmati ham ko'p qiziq

Har narsani aniqlar

Qanday so'rog'i bo'lar ?

(Aniqlovchi belgisi)

So'zki qaratqich kelishikda

Kelar gapda qaysi bo'lakda

(Qaratqich aniqlovchi)

“Vatani borning baxti bor”

- 1. Qaratqich aniqlovchi deb nimaga deb atiladi ?**
- 2. Qaratqich aniqlovchi qanday so'roqlarga javob bo'ladi ?**
- 3. Qaratqich aniqlovchiga misol ayting ?**

Dars yakuni;

Ushbu darsda guruhlarning faol ishtirokchilari baholanadi.

Uyga vazifa; 162-mashq.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma: N.Mahmudov, A.Nurmonov,

A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo'raboyeva

2. Ona tili 5-sinf darsligi N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov

Grammatik topishmoqlar kitobi

R.Sirojiddinov.